

O'RTA MAXSUS VA PROFESSIONAL TA'LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O'TKAZISH UCHUN MAXSUS RASM FANIDAN MALAKA TEST SINovi TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta'lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Maxsus rasm talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo'llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me'yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko'nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me'yoriy asoslar

1.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi **"Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"**gi 572-sonli Qarori.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

Maxsus rasm

1. Qalamtasvir va uning maqsad va vazifalari.
2. Rangshunoslik asoslari.
3. Odam anatomik tuzilishi va harakat holati.

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Ulushi (%)	Testlar soni
1	Qalamtasvir va uning maqsad va vazifalari.	Tasviriy san'atning asosi bo'lgan chizmatasvir va uning asosiy qonuniyatlari joylashtirish, konstruktiv qurish, perspektiva qonuniyati, hajm berish va soya-yorug' qonuniyatlari, tuslash, nisbatlar aniqlash, 1-2-3-plan, fon, xomaki chizmalar, ranglavhalar haqida bilim va ko'nikmalariga ega bo'lishi lozim.	42,5 %	17 ta
2	Rangshunoslik asoslari.	Rangtasvirda foydalaniladigan turli bo'yoqlar va ularning hususiyatlari, bo'yoq vositalari, ranglar haqida tushunchaga ega bo'ladilar. Ranglar psixologiyasi, asosiy ranglar, qo'shimcha ranglar, xromatik va axromatik ranglar, issiq va sovuq ranglarni tahlil qilish haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.	27,5 %	11 ta
3	Odam anatomik tuzilishi va xarakat holati.	Odam qomatini tasvirlashda qomat plastik anatomoyasini tuzilishi, nisbatlari, shakli, simmetriyasi, harakat holatlari, model qomati proporsiyasi haqida bilimga ega bo'lishi	30 %	12 ta

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	77,5 %
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	7,5 %
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	15 %

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarini topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezonlari va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish, imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Inklyuziya va moslashtirish

Alohida ta'limga ehtiyoji bor talabgorlar uchun qo'shimcha 15 % vaqt beriladi. Shuningdek, topshiriqlarning berilish shakli va turi ham ularga mos va qulay shaklda taqdim etiladi.

Ko'rish sohasida imkoniyati cheklangan talabgorlar savollarni o'qib berishi uchun maxsus texnik yordamchi bilan kelishiga ruxsat etiladi, faqat savolning to'g'ri javobini aytishi mumkin emas.

X. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1.Kostyum kreativ grafikasi. Darslik. X.X.Kamilova, N.A.Isahojayeva, K.R. Fuzailova. Fan va texnologiya. Toshkent -2017.

2.Rangtasvir. Kompozitsiya (Natyurmort). O'quv qo'llanma. N.A.Isahojayeva. Nizomiy nomidagi TDPU bosmaxonasi. Toshkent-2014.

3.Chizmatasvir va rangtasvir. Darslik. N.A.Isahojayeva, A.f.Karimov, R.T.Axmedov. Adabiyot uchqunlari nashriyoti. Toshkent-2018.